



AKT MUHITIDA LOGOPEDNING KASBIY RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

Pulatova Difuza Azamkulovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrası
o'qituvchisi

O'sarova Zebo

Maxsus pedagogika-logopediya talabasi

Sherqo'ziyeva Dildora

Maxsus pedagogika- logopediya yo'nalishi talabasi

Ataxodjayeva Oyshaxon

Maxsus pedagogika-logopediya yo'nalishi talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- Aprel 2023 yil

Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil

Nashr qilindi: 06-May 2023 yil

KEY WORDS

*Axborot kommunikatsiya
texnologiyalari, standart
dasturlar, ta'lim sifatini oshirish,
kasbiy mahorat.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada axborot –kommunikatsiya
texnologiyalari, yurtimizda axborot-kommunikatsiya
texnologiyalarining rivojlanish yillari, logoped
mashg'ulotlarida foydalanishi mumkin bo'lgan standart
dasturlar va ta'lim jarayonida AKTning o'rni haqida
yoritib berilgan..*

Nutq nuqsonlarini aniqlash va ularni bartaraf etish logoped zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Logoped bu vazifani amalga oshirish uchun turli xil metodikalar, ko'rgazmali va amaliy qurollar va albatta texnika yutuqlaridan foydalanadi. Bugungi zamon talabi bu albatta AKT ya'ni axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridir.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari – bu axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish, namoyish qilish va undan foydalanuvchilar manfaatlari yo'lida foydalanish maqsadida birlashtirilgan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy texnika vositalari majmuidir.

O'tgan davrdan 2021-yilgacha bo'lgan AKT sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli yangilanish va islohotlar, ularning natijalari haqida to

5xtaladigan bo'lsak, aholiga axborot –kommunikatsiya ko'rsatish hajmi 2016-yilda 5.2 trillion so'mni tashkil etgan. 2016-2021-yillarda axborot –kommunikatsiya sohasini yanada rivojlantirish borasida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar, aholining IT-xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish natijasida xizmatlar hajmi 2020-yilda 12.9 trillionga yetkazildi.

Bugungi kunda logopedlar har bir mashg'ulotlarini AKTdan foydalangan holda tashkillashtirmoqdalar. Chunki AKTdan foydalanib mashg'ulot o'tish ham oson, ham qulay, ham bolajonlar uchun qiziqarli. Chunki biz kompyuterda turli xil ko'rgazmali slaydlar tayyorlab bolajonlar diqqatini o'zimizga qaratamiz.

Turli nutq kamchiliklariga ega bolalar bilan tashkil etiladigan korreksion-logopedik ishlarning samaradorligi bo'lajak logopedlarni kasbiy tayyorlash modelini yangilash va takomillashtirish yo'llarini izlashga qaratilgan tadqiqotlarning ortib borishi bilan belgilanadi.

Logopedlarning kasbiy tayyorgarligi mashg'ulotlarni o'tish jarayonida foydalanadigan metodikalariga qarab belgilanadi. AKT muhitida logopedlar o'z mashg'ulotlari uchun quyidagi standart dasturlardan foydalanishlari mumkin:

Microsoft Word

Microsoft Excel

Microsoft Power Point

Windows Media Player

Bu dasturlar orqali jadvalli, grafikli, ovozli, animatsiyali va rasimli slaydlar tayyorlash mumkin. Shu kabi dasturlardan foydalangan holda o'tilgan har bir mashg'ulot ta'lim sifatining oshishiga imkon beradi.

AKT muhitida logopedning kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan biri bu albatta kompyuterdan foydalanish qoidalarini egallab olganligida namoyon bo'ladi. Yangi texnika, usullar va texnologiyalarni izlash, ayniqsa bizning davrimizda dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ham nafaqat logopedlar balki, hamma kasb egalari uchun kasbiy mahoratni oshiruvchi AKT kurslari tashkil etilgan. Pedagogning kasbiy mahoratiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'z-o'zini tarbiyalash hisoblanadi. Inson doimo zamon bilan hamnafas bo'lgan holda texnika yutuqlaridan to'laqonli foydalanib borishi kerak. Ayniqsa, maxsus ta'lim tizimida kompyuterdan foydalanish juda ham qulay. Chunki birgina video darslik yoki animatsion slayd orqali boladagi tasavvur, diqqat, nutq, ko'rish va eshitish kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish mumkin.

Maxsus ta'lim tizimida kompyuterdan foydalanish afzalliklari quyidagilardan iborat:

-an'anaviy sharoitda bola tasavvur qila olmaydigan obyektlarni modellashirish.

-aqliy va amaliy harakatlarni chiniqtirish uchun samarali shart-sharoitlar yaratish.

-o'quv jarayonini qo'shimcha vositalar bilan ta'minlash.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ta'limda AKTdan foydalanish:

1. O'qituvchini professional darajada o'sishiga, noan'anaviy shakl va usullarni izlashiga ijodkorlikning namoyon bo'lishiga turtki beradi.

2. Bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, dasturiy materialni o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi.

3. Ta'limning zamonaviy texnologiyalar bilan taminlanganligini belgilaydi.

4. O'qituvchiga ham moddiy, ham jismoniy yengillikni beradi.

Ammo shuni ham hisobga olish kerakki hamma mashg'ulotlar ham kompyuterdan foydalanib tashkillashtirilmaydi. Chunki bolalar uchun uzoq muddat kompyuterdan foydalanish zararli. Shuning uchun ham kompyuterdan foydalanganda mashg'ulotning davomiyligi 10-15 daqiqadan oshmasligiga, texnika va gigiyena qoidalariga rioya qilinishiga e'tibor berishimiz kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki AKTdan foydalanish nafaqat logopediya balki barcha kasb egalari uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal suratlarda rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pulatova.D.A (2022). THE USE OF ICT IN CLASSES ON THE DEVELOPMENT OF AUDIO RECEPTION AND FORMATION OF PRONUNCIATION IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(19), 441-445.

2. Pulatova .D.A. ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING O'QUV FAOLIYATIGA MOTIVATSIYANI OSHIRISHDA VAXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH. ЭКОНОМИКА,514-517
3. Usmanovna,Q.F. Azamkulovna,P.D.& Maxkamovna,M.D.(2022). INKLYUZIV TA'LIMDA KADRLAR MASALASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALARVA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI,2(14),834-842.
4. Azamkulovna, P. D. (2022).BO'LAJAK O'QITUVCHI – DEFEKTOLOGLARGA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI OLIB BORISHNI O'RGATISH KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIKKO'RISH OMILI SIFATIDA.Scientific impulse,1(5),413-418.
5. <https://daryo.uz>
6. Cyberleninka.ru
7. <https://fayllar.org>

